

Denov Tadbirkorlik va pedagogika institutida Zaxiriddin Muxammad Bobur  
tavalludining 538 yilligi munosabati bilan 2021 yilning 15 fevral kuni  
“Bobur buyuk qalb sohibi” mavzusida o'tkazilgan tadbir

### **BAYONNOMASI**

**15.02.2021 y**

**Denov t.**

Raislik qiluvchi: Sh.Amankulov O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b.  
Qatnashuvchilar: B.Jo'raev Ma'naviyat bo'limi boshlig'i  
B.Iraliev Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti dekani  
Z.Raxmatullaev Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti dekani  
A.Ibragimov dekan o'rinbosari  
X.Xurramov dekan o'rinbosari  
N.Nabiyeva O'zbek tili kafedrasida o'qituvchisi  
Professor-o'qituvchilar va talabalar

### **K U N T A R T I B I:**

1. Zaxiriddin Muxammad Bobur tavalludining 538 yilligi munosabati bilan “Bobur buyuk qalb sohibi” mavzusida ma'ruza.
2. Zaxiriddin Muxammad Bobur g'azallaridan o'qish va asarlaridan sahna ko'rinishlari.

Tadbir Tarix kafedrasida tomonidan tayyorlangan videorolik namoyish etish bilan boshlandi. Unda. Zaxiriddin Muxammad Bobur g'azallari va ruboiylari talabalar va o'qituvchilar tomonidan o'qib eshittirildi.



Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti prorektori Sh.Amankulov tomonidan tadbir ochib berildi. Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda Bobur yaratgan durdona asarlar dunyoning ko'pgina tillariga tarjima qilinib, buyuk shoir va davlat arbobi sifatida o'rganilmoqda. Uning hayoti va ijodiga oid ilmiy maqolalar hamon e'lon qilinib kelayotganligi to'g'risida aytib o'tdi. O'zbekiston davlatchiligi taraqqiyotida Amir Temur va Temuriylar sulolasi muhim



o'rin tutadi. Zahiriddin Muhammad Bobur ushbu buyuk ajdodlarga munosib shohlardan biridir. U o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili: buyuk shoir, tarixchi, geograf, davlat arbobi, iste'dodli sarkarda, boburiylar sulolasi asoschisi, temuriy shahzoda. Ulug' bobomizning



sertashvish hayoti va jo'shqin faoliyati siyosiy jihatdan inqirozga uchragan Temuriylar davlatining so'nggi davriga to'g'ri keldi. Ushbu davr barcha azob-uqubatlarini boshdan kechirish Bobur Mirzo chekiga tushdi. Otasi Axsida bevaqt, 39 yoshida fojiali halok bo'lgach, oilaning katta farzandi, 12 yoshli Bobur valiahd sifatida taxtga o'tiradi. Bobur hukmronligining dastlabki 2-3 yilida mavqeini mustahkamlash, bek va amaldorlar bilan o'zaro munosabatni yaxshilash, qo'shinni tartibga keltirish, davlat ishlarida intizom o'rnatish kabi muhim chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Boburning dastlabki siyosiy maqsadi Amir Temur davlatining poytaxti, strategik va geografik jihatdan muhim bo'lgan Samarqandni egallash va Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlatni saqlash, mustahkamlash hamda Amir Temur saltanatini qayta tiklashdan iborat edi. Tadbirdan ko'zlangan asosiy maqsad, bugungi kunda Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining mazmun-mohiyatini, ba'diy xususiyatini va ahamiyati chuqur singdirish haqida aytib o'tdi.

Ushbu tadbirning badiiy qismi institut talabalari tomonidan qizg'in olib borildi. Bu



o'rinda badiiy qismdagi ijro qilinadigan Zahiriddin Muhammad Boburning Panipat gangida Ibroxim Lo'diyni yingan va amalika Bayda o'chi to'g'risidagi sahna ko'rinishlari va mumtoz qo'shiq va

raqslar talabalar tomonidan ijro etildi.

Tadbir ishtirokchilari o'tkazilgan tadbirdan minnatdorlik bildirdi hamda institut Ma'naviyat bo'limi tomonidan ishtirokchi o'qtuvchilar va talabalarga Faxriy yorliqlar topshirildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib,

**QAROR QILADI:**

1. Zaxiriddin Muxammad Bobur tavalludining 538 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan tadbir ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Har bir fakultetda Zaxiriddin Muxammad Bobur tavalludining 538 yilligi keng nishonlansin.

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari

X.Xurramov